

**O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI KASABA  
UYUSHMASI FAOLIYATIGA NAZAR****Daripov Shahobiddin Isroiljonovich, O‘rta Osiyo tibbiyot  
universiteti****REVIEW OF THE ACTIVITIES OF THE RAILWAY  
WORKERS’ UNION OF UZBEKISTAN****Daripov Shahobiddin Israiljonovich, Central Asian Medical  
University****ОБЗОР ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФСОЮЗА  
ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНИКОВ УЗБЕКИСТАНА****Дарипов Шахобиддин Исраилжонович, Среднеазиатский  
медицинский университет****<https://orcid.org/0009-0003-2813-7623>****e-mail:****[ulugyulduz@89gmail.com](mailto:ulugyulduz@89gmail.com)**

**Annotatsiya:** Yangi O‘zbekistonni jamiyatimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o‘zgartirgan, yangi demokratik qiyofaga ega davlat sifatida ko‘rish uchun ham barcha soha tarmoqlari qatori temir yo‘l tizmini ham rivojlantirish zamon talabidir. Bu sohani yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu maqolada “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarmoq kasaba uyushmasi hamda ularning faoliyati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Kasaba uyushma, transport quruvchilari, O‘rta Osiyo temir yo‘li, temir yo‘l uzellar, kasbiy bayram, temir yo‘l transporti faxriylari, temir yo‘l transporti xodimlari kuni, sanatoriya, pansionat, sanatoriy-profilaktik, biologik shifoxona.

**Abstract:** In order to see the new Uzbekistan as a country with a new democratic image, which has completely changed the political, social and economic relations in the life of our society, it is the need of the hour to develop the railway system as well as all the branches of industry. All opportunities are being created for further development of this field. This article talks about the branch trade union “Uzbekistan Railways” JSC and their activities.

**Key words:** trade union, transport builders, Central Asian railway, railway hubs, professional holiday, railway transport veterans, railway transport employees’ day, sanatorium, boarding house, sanatorium-prophylactic, biological hospital.

**Аннотация:** Чтобы увидеть Новый Узбекистан как государство, полностью изменившее политические, социальные и экономические отношения в жизни нашего общества, необходимо развивать железнодорожную систему, а также все отрасли промышленности. Создаются все возможности для дальнейшего развития этой сферы. В данной статье рассказывается об отраслевом профсоюзе АО «Узбекские железные дороги» и их деятельности.

**Ключевые слова:** профсоюз, транспортники, Среднеазиатская железная дорога, железнодорожные узлы, профессиональный праздник, ветераны железнодорожного транспорта, день работников железнодорожного транспорта, санаторий, пансионат, санаторий-профилакторий, биологическая больница.

**KIRISH.** Temiryo‘lchilar kuni kalendar sana bo‘lib, ushbu kunda temiryo‘lchilarning kasbiy xizmatlari va butun tarmoqning xalq xo‘jaligidagi yutuqlari sarhisob sifatida nishonlanadi. Birinchi bor ushbu bayram 1896-yilning 25-iyun kuni nishonlangan va 1917-yilgacha muntazam ravishda o‘tkazib kelingan, ammo u 1936-yilgacha to‘xtatib qo‘yildi. Sovet Markaziy ijroiya qo‘mitasining 1936-yil 28-iyundagi qaroriga binoan kasbiy bayram avgust oyining birinchi yakshanba kunida nishonlanishi tasdiqlandi.

Tarmoq kasaba uyushmasi Markaziy qo‘mitasining tarqatib yuborilishi sababli 1992-yilning 27-yanvar oyida kasaba uyushmaning 12-konferensiyasi o‘tkazilib, unda Tarmoq kasaba uyushmasi tarkibidan chiqish va O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilarining mustaqil kasaba uyushmasini tashkil etish to‘g‘risida ta‘sis konferensiyasini o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Kasaba uyushmasining ta‘sis konferensiyasi 1992-yil 26-mart kuni o‘tkazildi. Ta‘sis konferensiyasi Tarmoq kasaba uyushmasi tarkibidan chiqish va O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasi nomini “O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilarining mustaqil kasaba uyushmasi” deb o‘zgartirish va kasaba uyushma Ustavini va harakat dasturini tasdiqlash bo‘yicha qaror qabul qilindi[2].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil noyabrdagi Farmoniga muvofiq, O‘rta Osiyo temir yo‘lining O‘zbekiston Respublikasi uchastkalari bazasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasi tashkil etildi[3].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-noyabrdagi 378-sonli Farmoniga binoan amaldagi temir yo‘l bo‘limlari bazasida mintaqaviy temir yo‘l uzellari tashkil etildi. Kompaniya korxonalarida o‘tkazilgan tuzilmaviy o‘zgarishlar tufayli kasaba uyushma tashkilotlarida ham ma‘lum tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keldi. 1994-yilning 27-dekabr kuni Toshkent shahrida O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilari mustaqil kasaba uyushmasining 14-hisobot-saylov konferensiyasi o‘tkazildi. Konferensiya O‘rta Osiyo temiryo‘lchilar va transport quruvchilarining mustaqil kasaba

uyushmasi nomini “O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasi” deb o‘zgartirish hamda amaldagi Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Ushbu konferensiyada O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasini O‘zbekiston kasaba uyushmalari kengashi tarkibiga kirishi bo‘yicha ham qaror qabul qilindi[5].

**MUHOKAMA.** 2005-yilning 17-mart kuni O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasining 3-qurultoyi o‘tkazildi. Kasaba uyushmaning oliy organi bo‘lgan “Markaziy qo‘mita” nomi “Markaziy Kengash” deb o‘zgartirildi[4].

2014-yil 20-yanvar kuni O‘zbekiston temiryo‘lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasining 5-qurultoyi o‘tkazildi. Qurultoy kun tartibiga kiritilgan masalalar muhokama qilinib, ular bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilindi. Kasaba uyushma oliy organi bo‘lgan “Markaziy Kengash” nomi “Respublika Kengashi” deb o‘zgartirildi. Ushbu qurultoyda kasaba uyushmaning amaldagi Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Kasaba uyushmaning Ustavi qabul qilingandan so‘ng doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan o‘tkazib turildi. Kasaba uyushma boshlang‘ich tashkilotlarining mavqeini oshirishda o‘tkazilayotgan “Eng namunali boshlang‘ich tashkilot” ko‘rik-tanlovi katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. 2011-yildan o‘tkazilib kelinayotgan ushbu tanlovda tarmoq kasaba uyushmasining boshlang‘ich tashkilotlari barcha bosqichlarda faol ishtirok etdilar va 2011-yilning yakuniy bosqichida “Quyuv mexanika zavodi” sho‘ba korxonasi, 2013-yilda “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” unitar korxonasi, 2015-yilda “Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti” va “Toshkent qon quyish stansiyasi” kasaba uyushmalarining boshlang‘ich tashkilotlari sovrinli o‘rinlarni egallashga erishdilar. G‘oliblar Federatsiya Kengashining diplomlari va qimmatbaho sovg‘alari bilan taqdirlandilar[1].

Amaldagi tarmoq kelishuviga kiritilgan imtiyoz tufayli soha korxonalarida uzoq yillar davomida mehnat qilib, tarmoqning rivoji va ravnaqi uchun o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shgan mehnat faxriylari uch yilda bir marta soha

tasarrufidagi sogʻlomlashtirish maskanlarida bepul sogʻliklarini tiklashga muayassar boʻlmoqdalar[6].

Oʻtgan 81 yil davomida barcha temiryoʻlchilar kabi, Oʻzbekiston temiryoʻlchilari ham oʻzlarining kasbiy bayramlarini mehnatdagi yutuqlari, xalq xoʻjaligi yuklarini va yoʻlovchilarni tashish boʻyicha olgan majburiyatlarini bajarish boʻyicha hamda temir yoʻl transportining rivoji uchun qilinayotgan bunyodkorlik ishlari toʻgʻrisida hisobot berishi bilan bir qatorda, Toshkent shahri va yirik temir yoʻl uzellarida madaniy-maʼrifiy tadbirlar oʻtkazib kelindi. Ushbu tantanalarga nafaqat temiryoʻlchilar, balki temir yoʻl transporti faxriylari, mehmonlar, hokimliklar va xalq xoʻjaligining turli soha vakillari taklif qilib kelinmoqda. Shuningdek, temiryoʻlchilar kasbiy bayrami Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Oʻzbekiston Axborot Agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan keng yoritib kelinmoqda[7].

**NATIJAR.** 2017-yil Oʻzbekiston temiryoʻlchilari uchun unutilmas voqealarga boy boʻldi. Temiryoʻllarda yuk va yoʻlovchilarning sonini oshirish, temir yoʻl infratuzilmasini rivojlantirish borasida soʻnggi yillarda erishilgan yutuqlarni hisobga olib hamda soha mutaxassislarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, sohada mehnat qilayotgan keng jamaotchilikning takliflarini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-avgustidagi Farmoniga muvofiq 2017-yildan boshlab avgust oyining birinchi yakshanbasi “Oʻzbekiston temir yoʻl transporti xodimlari kuni” deb eʼlon qilindi[8].

Soha xodimlarini, ularning oila aʼzolarini sogʻomlashtirish, ular orasida turli madaniy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil etish, ilgʻorlarni moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish, soha xodimlari va yoshlarni sport bilan shugʻullanishga keng jalb etish ishlari ham amalga oshirib kelinmoqda[9].

Temir yoʻl rahbariyatining saʼy-harakatlari tufayli “Chimyon” (1974-yil), “Nazarbek” (1986-yil) sanatoriyalari, “Xoʻjakent” (1989-yil) pansionati, “Sihatgoh” (1988-yil) va “Qoʻngʻirot” (2004-yil) sanatoriy-profilaktik hamda “Omonxona” (2009-yil) biologik shifoxonasi bunyod etilib foydalanishga topshirildi va yillar oʻtishi barobarida ularda zamon talablariga mos ravishda shart-sharoitlar, qoʻlayliklar yaratildi[1].

Taʼkidlash joizki, har yili sohaning 1600 nafarga yaqin xodimlari sogʻomlashtirish maskanlarida oʻz sogʻliklarini tiklayotgan boʻlsalar, shularning 370 nafarga yaqini mehnat faxriylaridan iboratdir[3].

Tarmoq uzellarida joylashgan 5 ta bolalar oromgohlari bir yoʻla 2010 nafar bolalarni qabul qilish imkoniyatiga ega boʻlib, yil sayin ularda 7000 nafarga yaqin soha xodimlarining farzandlari hordiq chiqarmoqdalar.

**XULOSA.** Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, temiryoʻl tarmogʻida tibbiy xizmat, madaniyat va sport obyektlarini barpo etish va ularning moddiy-texnik bazalarini rivojlantirish orqali zamon talablariga javob beradigan sharoitlarning yaratilishi tufayli temiryoʻlchilar va ularning oila aʼzolarini sogʻomlashtirish va sogʻiqlarini mustahkamlash ishlari sifatli darajada va muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. A.Z.Togʻayeva. Temiryoʻl tarixidan. Moziydan sado. – Toshkent: 2009.
2. G.Asanov, M.Nabixonov, I.Safarov. Oʻzbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jugʻrofiyasi. – Toshkent: 1995.
3. K.E.Xidiraliev. Oʻzbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Guliston: 2015.
4. Temiryoʻlchi gazetasi. 2013-yil 2-avgust maxsus soni.
5. Oʻzbekiston temir yoʻllari maxsus jurnali. – Toshkent: 2003.
6. Oʻzbekiston temiryoʻlchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2009.
7. Oʻzbekiston temiryoʻlchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2015.
8. Oʻzbekiston temiryoʻlchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2013.
9. Oʻzbekiston temiryoʻlchilari va transport quruvchilari kasaba uyushmasi maxsus jurnali. – Toshkent: 2019.